

# “BOBURNOMA”DA FORSCHA VA O’ZBEKCHA SIFAT

## DARAJALARI

Katta o’qituvchi

ABDUVALIYEV Abdulhamid

“Sifat kategoriyasidagi so’zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini, ya’ni rang-tusini, hajmini, shaklini, xarakter-xossa-xususiyatlarini, vaznini, mazasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, qizil-alvon, sabrli odam, qaysar qiz”.<sup>1</sup>

O’zbek tilida boshqa so’z turkumlaridagi kabi sifat turkumida ham affiksatsiya usuli bilan so’z yasash keng rivojlangan. O’zbekcha affikslar bilan bir qatorda forscha affikslar va affiksoidlardan ham keng foydalanilgan. Masalan, **-siz, -be-, -li, -bo-, ba-, no-, -dor, -iy, -vor, -kor, -cha, -mand, -bor, -vor, -parast, -xon, -soz, -do’z, ser-, pur-, xush-** va boshqalar sifat yasovchi forscha qo’shimchalar hisoblanadi. Forscha qo’shimchalarning aksariyati old va ayrimlari orqa qo’shimcha sifatida “Boburnoma” asarida ham qo’llangan. Ushbu qo’shimchalar o’zbekcha+forscha, forscha+o’zbekcha, forscha+arabcha shaklida “Boburnoma”da qo’llangan.

Bulardan tashqari, sifat darajasi **-roq//rak** fonetik variantlarida qiyosiy daraja ma’nosini hosil qilish uchun qo’llangan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da sifat belgisining qiyoslash darajasi bilan kelgan so’zlarga alohida e’tibor bergan. Bu daraja orqali belgining ortiq yoki kamligi, yuqori yoki pastligi qiyoslash yo’li orqali ifodalanishini ko’rsatadi. Qiyosiy daraja formasini yasovchi asosiy qo’shimcha **-roq** qo’shimchasi hisoblanadi. Qiyosiy daraja ko’rsatkichi ikki predmet orasidagi (hodisa, voqea, holat) belgini qiyoslash uchun ishlatiladi.

---

<sup>1</sup> O’zbekiston Fanlar Akademiyasi. A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. O’zbek tili grammatikasi I tom Morfologiya

O’zbekiston “Fan” nashriyoti. Toshkent 1975. 271-bet

“Boburnoma” da juda ko’p so’zlar, ya’ni forscha, o’zbekcha va arabcha so’zlar ham **-roq** qo’shimchasi yordamida yasalgan. Bu kabi so’zlar asarda bir-biri bilan sinonim ma’noda qo’llangan. Muallif o’z asarida **-roq** qo’shimchasiga alohida to’xtalib, bir so’zni bir necha variantlari ishtirok etgan ma’nolariga e’tibor bergan. Masalan: hozirgi o’zbek tilida qo’llanilgan **ilgariroq** so’ziga bir necha variantda bu so’zning sinonimidan foydalangan. **Ilgariroq – ilgarroq** (132), **ilgarrak** (26, 344,128, 285), **burunroq**(21-,26-,75), **avvalroq** (75-, 132-, 272-, 316-, 343), **ertaroq** (202) kabi o’zbekcha, arabcha so’zlar sinonim ma’nolarda qo’llangan. *Toshkand burug’lug’idin burunroq egachisini angizi bila mendin chiqdi. –Nosir mirrohim, ilgarrak viloyatga kelib edi* (132). Ayrim joylarda **ilgarrak** va **ertaroq** so’zi ham sinonim ma’noda kelishi mumkin. – *Namozi digardin ertaroq tushuldi* (202).

Asarda **tor, ingichka, tang, qisqa** so’zlari ham **-roq** qo’shimchasini olib sinonim ma’noda qo’llangan. Masalan: *Agarchi julgasi torroqdur, vale bo’g’ina yaxshigina o’langlardur* (219). *Bu ulug’ yiloning ichidin bir inchkarak yilon chiqti* (220). *Muning ikki qo’l va ikki buti qisqaroqdur.* (253) *-Yanako’takpoydur* (253) Yuqoridagi jummalarda **torroq, inchkarak, qisqaroq** va **ko’tahpoy** (kalta oyoq) so’zlari sinonim ma’nolarda ishlatilgan.

Asarda ba’zi forscha sifatdoshlarga ham qo’shilgan daraja ko’rsatkichi qatnashgan so’zlar ham mavjud. Masalan, - *Bu fildin darrandaroqtur.* (253) *Darranda* – yirtqich, yirtuvchi, yirtadigan ma’noda kelib, darranda so’zi **-roq** qo’shimchasini qabul qilgan, lekin bu so’zning sinonim ma’nodoshi bo’lgan o’zbekcha shakli yirtqish leksemasi **-roq** qo’shimchasini qabul qilmaydi.

Asarda *katta* degan so’zning o’zbekcha variantiga **-roq**, forscha shakliga forscha daraja ko’rsatkichi **-tar** qo’shimchasi qo’shilganini ko’ramiz. Ayrim o’zbekcha so’zlarda *ulug’, irik, katta* va forscha *kalon* so’zi ham daraja ko’rsatkichini qabul qiladi. Masalan, - *Va buta-buta bo’lur, bargi noranj bargidin ulug’roq bo’lur.* (263) - *Andin so’ng o’ttuz-qirq barg shoxining uchida bir yerdin – o’q irikroq panjauradur.*(263) - *Men bir kalontarining uyiga tushtim.* (87)

Yuqoridagi jumalarda **ulug'roq, irikroq, ulkanroq** kabi so'zlar forscha **kalontar** so'zi, ya'ni "kattaroq" ma'nosida sinonim ma'noda ishlatilgan.

"Boburnoma"da rang ma'nosidagi forscha, turkiycha so'zlarga **-roq** qo'shimchasi qo'shilib qiyosiy darajani hosil qilgan. Masalan: *Yana jomandur, bargi tol bargiga filjumla o'xshar, girdroq va yashilroqtur, daraxti xoli az xushnamoliq emas. (261) - Shox va barg uzog'on soyi bargi sabzroq bo'ladur. – Gulbanddin bir nima balandraktur, rangi anor gulidin hanuz sabzroqtur, ulug'lug'i qizil gulcha bo'lg'ay (258).*

Yuqoridagi gaplarda **-roq** qo'shimchasi *yashil, sabz* so'zlariga qo'shilib qiyos hosil qilgan. **Sabz** so'zi o'zbek tilida ham yashil hamda "ko'k" ma'nosida qo'llanilishi mumkin. **Sabzavot** – "ko'katlar" sifatida tarjima qilinadi.

Asarda rang ma'nosini anglatuvchi *qoraroq (258) – siyohroq (267)* kabi so'zlar ham bir necha gaplar tarkibida qo'llangan. *Baland* forscha so'zining sinonim ma'nodagi o'zbekcha varianti *yuqori* so'zi ham **-roq** qo'shimchasini qabul qilgan. Masalan: *Chitrdin uch-to'rt kuruh yuqqorroq bu suv ro'dning zihidin chiqib keladur. (240) Gulbundin bir nima balandrakdur, rangi anor gulidin hanuz sabzroqtur. (264)* Bu gaplardagi *yuqqorroq, yuqoriroq* va forscha *balandroq* so'zlari qiyosiy darajani hosil qilgan. Ayrim gaplarda *ulug', ulug'roq, buyukroq, irikroq* so'zlari ham *kattaroq, balandroq* so'zlariga sinonim ma'nolarda qo'llangan. Xuddi shunday asarda tekislik ma'nosida qo'llanuvchi o'zbekcha *tuz, tekis* so'zlarining forscha sinonimi *hamvor* so'zi ham **-roq** daraja ko'rsatkichini qabul qilgan holda ishlatilgan: *Tanasi xurmo daraxtning tanasidan yaxshiroq va hamvorroqdur (248).*

Sifat turkumiga tegishli ham o'zbekcha, ham forscha so'zlar **-roq** qo'shimchasini qabul qilib sinonimik ma'nolarda, masalan, *quyi* so'zining sinonimi hisoblangan *past* so'zi ham o'zbek tilida qo'llaniladi. Bu so'z leksik ma'no jihatidan o'zbekcha *quyi* so'zdan boshqacharoq ma'nolarni bildirib kelishi mumkin: *past odam, past devor, past uy* kabi so'zlarda. *Tong otib edikim, Raboti xo'jadin quyiroq Ko'hak suyini kechib yana Yor yayloq kelduk (75). Terani hukm bo'ldi, quyiroq ko'rulgan guzar bila o'tgay (310).*

*Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroqvoqebo'lubtur (154). Bu fasilning o'rtasida bu fasildin pastroq yana bir fasil igiribturlar (314).*

Garchand forscha *pastroq* so'zi *quyi* so'zi bilan sinonim ma'noda kelib, **-roq** qo'shimchasini olib kelgan bo'lsa-da, chog'ishtirish ma'nosida bir-biridan biroz farq qiladi. Agar *past* so'zi insonlar yoki predmetlarga nisbatan aytilsa, unda bir-biriga nisbatan qiyosiy darajada bo'ladi. Aks holda, sinonim ma'nolarida biroz o'zgarishlar bo'ladi.

O'zbekcha so'zlar tarkibida **-roq** qo'shimchasi, asosan, asliy sifatlarga, xuddi shunday o'zbek tilida qo'llangan forscha asliy ma'noga ega sifatlarga qo'shilib kelgan. Masalan, o'zbekcha *yaxshiroq* (141, 185, 283, 361) so'zining sinonimi sifatida Bobur *xo'broq* (157) so'zini qo'llagan. Yoki *yumshoqroq* (261) so'ziga sinonim ma'noda *muloyimroq* (104) leksemasini ishlatgan. Masalan: *Aql egalaringning o'tkir ko'zlariga bu g'alabadan ko'ra yaxshiroq saodat ko'rinmaydi (361). Xububni xo'b bitir ta'liqni xo'broq bitir edi, inshoni xo'b qilur edi (157). Bu donalarning xurmodin yumshoqroq go'shti bor, ani yeydurlar, xeyli chaspandadur (261). Alar ham tushtilar, hurmat va ta'zim bila muloyimroq ayta kirishtilar (104).* Bu jummalarda *yumshoqroq* – *muloyimroq*, *yaxshiroq* – *xo'broq* so'zlari daraja ko'rsatkichi bilan ham sinonim ma'noda qo'llangan.

“Boburnoma”da *ulug'roq*, *irikroq*, *buyukroq* so'zlari *balandroq*, *kalontar* kabi so'zlar bilan sinonim ma'noda qo'llangan. Hozirgi o'zbek tilida esa bu so'zlarning ayrimlari sinonim ma'noda ishlatilmaydi.

Asarda forscha *tundroq*, *tezroq*, o'zbekcha *ilgarrak* so'zi bilan sinonim sifatida keltirilgan (262, 264, 360, 188, 285). “Tez” so'zi o'zbekcha “o'tkir” so'zi bilan sinonim bo'lib kelishi mumkin. Lekin asarda *tund* va *tez* so'zi daraja ko'rsatkichi **-roq** qo'shimchasini olgan shaklda o'zaro sinonim ma'nolarda ishlatilgan.

Bobur o'z asarida o'zbekcha va forscha sifatlardan tashqari yasama forscha, arabcha so'zlardan tarkib topgan so'zlarga ham **-roq** qo'shimchali so'zlardan unumli foydalangan. *Be+hunar+roq* – *behunarroq* (156), *kam+ob+roq* – *kamobroq* (261, 263), *kam+hosil+roq* – *kamhosilroq* (123); ot turkumidan **be-**,

**kam-** qo'shimchalari yordamida yasalgan forscha yasama so'zlarga, o'zbekcha *ozroq* (94, 198, 321-bet), *ozroqcha* (240, 242, 260) so'zlardan foydalangan: *Mazasi mirmirxonga o'xshar, mirmirxondin chuchukroq va kamobroqtur* (261). *Kamobroq* – “suvi kamroq, suvsizroq” ma'nosida qo'llangan. *Kamhosilda* esa forscha+arabcha+o'zbekcha *kamhosilroq, kammevarroq* kabi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da ayrim o'zbekcha qoidalarga zid, ya'ni qarshi holda **-roq** qo'shimchasini forscha ot, hozirgi zamon sifatdoshi va o'tgan zamon sifatdoshiga tegishli so'zlarga qo'shib jumlar tuzgan. Masalan: *Yana Qorako'l viloyatidur. Barchadin poyon obroqdur* (47). *Kamobroq yerdur, bahori xo'b bo'lur, ekini va qovuni yaxshi bo'lur* (47). *Bir necha kundan so'ngra gurg oshtiroq qilib yondilar* (91). *Bu fildin darrandaroqtur* (253). Bu jumladagi hozirgi o'zbek tilining qoidasiga to'g'ri kelmaydigan otdan, sifatdoshlardan, fe'llardan iborat bo'lgan so'zlarga **-roq** qo'shimchasi qo'shilgan holda qo'llangan. Yuqoridagi misollarda *obroqdur, suvroqdur* – “suvliroq” ma'nosida, *gurg oshtiroq* – “bo'ri yarashtirishmoq”, *darandaroq* – “yirtqichroq” ma'nolarida kelgan.

Bundan tashqari, forscha *sifat+fe'l+roq, sifatdosh+roq* yoki sof forscha *sifat+roq* qo'shilgan so'zlar ham ishlatilgan. Masalan: *Yoqa yerda ulg'ong'on uchun bir nima rustoyiroq, durushtgo'yroq edi* (94). Bu jumladagi *rustoyiroq* – **rusto+yi+roq** “qishloqiroq” ma'nosida, *durushtgo'yroq* - **durusht+go'y+roq** – “yomon so'zliroq, yomon gapiruvchiroq” ma'nosida ishlatilgan.

Xulosa qilish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur ayrim sifat turkumiga doir so'zlarga qo'shilgan daraja qo'shimchasini otga, sifatdoshlarga hatto ayrim fe'l turkumiga doir so'zlarga ham qo'shib qo'llagan. Bunday so'zlar ayrim o'zbekcha jumlar tarkibidagi so'zlarda qo'llangan, ya'ni **-roq** qo'shilgan elementning o'zigina gapda ishtirok etib qiyos hosil qilishi mumkin. Masalan: *Nafas ololmayotibman, shabadaroq joyga olib boring.* Agar bu misoldagi fikr to'liq tiklansa – “Nafas ololmayotibman, bu yerdan ko'ra

shabadaroq joyga olib boring”, shaklini olar edi.<sup>2</sup> Bunday holatni “Boburnoma”da kam “obroq”, durushtroq, guzaroroq, tundroq, turshroq, pastroq kabi forscha so’zlarda ham ko’rishimiz mumkin. Chunki asarda -roq qo’shimchasi sifat, fe’l, sifatdosh, ot kabi forscha so’zlarga qo’shib daraja ko’rsatganini ko’rishimiz mumkin.

Bobur forscha so’zlarga sifat yasovchi old yoki orqa qo’shimchalar qo’shib, ham ularga daraja ko’rsatkichi -roq qo’shimchasini qo’shib ishlatgan. Bu uning tilshunoslikdagi yuksak mahoratini ko’rsata oladi.

---

<sup>2</sup> O’zbek tili grammatikasi. I tom. Toshkent 1975 – yil 300-bet